

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ХОРИЖИЙ ТИЛЛАР ФАКУЛЬТЕТИ
ФРАНЦУЗ ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ КАФЕДЕРАСИ

301- гуруҳ талабаси Ғанижонова Муҳлисанинг
француз тили ўқитиш методикаси фанидан

«ЧЕТ ТИЛИ ЎРГАНИШДА ФАКУЛЬТАТИВ ВА
ТЎГАРАК ИШЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ»
МАВЗУСИДА

КУРС ИШИ

ИЛМИЙ РАХБАР: МАМАТҚУЛОВ А.

Mavzu: Chet tili o'rganishda fakultativ va to'g'arak ishlarining ahamiyati.

I Kirish: Fakultativ tushunchasining taxlili.

II Asosiy qism:

1. Fakultativ kursning maqsadi va tashkiliy masalalari.
2. Fakultativ mashg'ulot turlari va ularni o'tkazish.
3. Og'zaki nutq va o'qishni chuqurroq o'rganish fakultativ kursi.
4. Chet tillaridan fakultativ mashg'ulotlari.
5. Fakultativ mashg'ulotda qo'yiladigan talablar.
6. Chet tilida sinfdan maktabdan tashqari o'tkaziladigan to'g'arak ishlarni tashkil qilish.
7. Xulosa

KIRISH.

Ta'limshunoslikda o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlari, havasi, intilishlarini, umuman olganda xohish- istaklarini hisobga olish va farqlab yondashish masalalari muhim o'rin egallaydi.

Ma'lumki, bir sinfdagi xilma-hil shaxslar o'qiydi. Ularning umumiy xususiyatlari bilan birga juda farqli hislatlari namoyon bo'ladi. O'quv predmetlariga munosabat jihatidan ham ular turli toifalarni tashkil etadilar. Majburiy o'quv predmetining dasturiy talablari o'rtacha qobiliyatga ega o'quvchilarga mo'ljallanadi. Undan tashqari bo'shroq va ilg'or o'quvchilar ham ajralib turadi. Bilimi suz o'quvchilarga qo'shimcha darsda yordam beriladi. G'ayratli o'quvchilar esa qo'shimcha o'quv materialini o'rganishga intiladi. Muayyan o'quv predmetiga zo'r ishtiyoq ko'rsatuvchi o'quvchilar ushbu sohada ixtiyoriy kursga jalb etilishi mumkin.

Keng istifoda atalmish „ fakultativ “ so'zi lotincha facultasdan olingan bo'lib, „ yo'l qo'yiladigan“ , „ iloji bor“ , „ majburiy emas“ , „tanlanidigan “ kabi ma'nolarini bildiradi.

Maktabda „ majburiy“ o'quv predmeti bo'yicha birlamchi dastur ishlaydi, asosiy kurs amal qiladi, undan tashqari hohlovchilar uchun, barchaga majburiy bo'lmagan, qiziqishiga qarab tanlanadigan mashg'ulotlar tafsifiya etiladi. Demak, asosiy dasturiy kursni majburiy deb, qo'shimcha material o'rganishni ixtiyoriy kurs nomi bilan yuritiladi.

Chet tilidan ham ixtiyoriy mashg'ulot olib borishga, barcha sohada bo'lganidek, ruxsat etilgan. 1967-1968 o'quv yilidan boshlab majburiy kurs dasturidan tashqari fakultativ kurs kiritilgan. Dasturiy talablarni qoniqarli va yaxshi o'zlashtiruvchi va bilimlarini yanada chuqurlashtirishga moyil o'quvchilar ham maktablarda keng quloch yoygan. Ixtiyoriy dars haqida 60-yillar ikkinchi yarmidan hozirgacha ko'plab adabiyot chop etilgan.

Metodik manbalarda uchraydigan "ixtiyoriy" so'zi bilan yasaladigan ikki atamaning farqiga borishi kerak: chet til fakultativ o'quv predmeti: Birinchisida majburiy kursning davomi tushuniladi. Ikkinchi atama "ixtiyoriy o'quv predmeti" ma'nosi butunlay boshqa ya'ni o'quv

predmeti(masalan: chet tili) o'qitilmaydi,o'quv rejasidan joy olmagan,biroq o'qishni istovchilar topilsa,uni qo'shimcha predmet maqomida o'rganishga ruxsat qilingan.Kechki maktablarda 1970-yildan boshlab chet tili o'qitish rejalashtirilmaydi mobodo o'quvchilar hohish bildirgan taqdirlarida uni ixtiyoriy o'quv predmeti qilib o'qitiladi.

Ixtiyoriy atamasi qo'zg'aydigan assotsiatsiya majburiyga qo'shimcha va nomajbur o'quv predmeti tushunchalarini aks ettiradi.

Maktabda o'qitiladigan chet til ixtiyoriy kursi oldiga majburiy kursdagidek amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar qo'yiladi. Ijodiy yo'nalishdagi juft nutq va yakka nutq mashqlari bajariladi: O'qilgan adabiyotni, tinglangan audiomatryallarni , namoish etilgan filmlarni chet tilida muxokama qilinadi. Ular xaqida ma'ruzalar va axborotlar qilinadi. Uyda o'qilgan matnlar mazmunini mashg'ulot chog'ida tekshirib ko'riladi. Fakultativ dasturidagi mavzular bo'yicha maqola va parchalar o'qiladi, annotatsiya va referatlar yoziladi. O'quv rejasida ixtiyoriy darsning VII sinfdan boshlanishi qayd etilsada, chet tili bo'yicha u VIII sinfdan boshlab o'tkaziladi V-VII sinflarda o'zlashtirilgan til materiali asosida ish ko'riladi. O'quvchi majburiy dars va ixtiyoriy mashg'ulotda birvarakay shug'illanib boradi. Dema, ixtiyriy dars va ixtiyoriy dars ham maktab o'quv tarbiya jarayonining ajralmas qismidir. Umumta'lim berishni takomillashtirishning samarali shakli bo'lib, ixtiyoriy dars o'quvchini unumli ishlashga o'rgatish vositasidir.

O'quv rejasida majburiy predmetlar ro'yxatidan tashqari ixtiyoriy kurslarga fan yoki soxaning nomi ko'rsatilmasdan haftalik soat miqdori belgilashgan.

O'quv sinflarda qaysi (sinfni) predmetni tanlashsa shundan masg'ulot boshlanadi: soat o'sha soxaga ajratiladi. VIII sinf boshlanishidan fakultativ sinf yoki guruh tashkil qilinadi.

Ixtiyoriy kursning tashkiliy masalalariga to'xtalamiz. Fakultativ guruh 10- sentyabgacha tuziladi.

Mashg'ulot mobaynida o'quvchilar javobiga baho qo'yilmaydi. O'quvchi ko'nikma va malakasini muallim og'zaki baholaydi, majburiy mashg'ulotlarda ixtiyoriy ishtirokchilarning yutuqlari aloxida izohlab turiladi.

Fakultativ mashg'ulotlar VII- IX sinflarga mo'ljallanib, ushbu kursni 2- bosqichga ajratish mumkin birinchi yil va qolgan o'quv yillari uchun ixtiyoriy mashg'ulotlar.

Birinchi bosqichda o'quvchilarning ko'nikma malakalari tenglashtiriladi, yani V-VII sinf til materialli va nutq malakalari mustahkamlanadi, va ushbu sinf uchun fakultativ dasturi material asosida ko'nikma va malakalar rivojlantiradi. Chet tilidan ixtiyoriy mashg'ulotlar tashkil qilishning muayyam metodik mezonlari ishlab chiqilgan.

1. Chet til kommunikativ asosda o'qitiladi. Majburiy darslarga qaraganda ixtiyor darsda ushbu mezon ta'limda kengroq tatbiq etiladi. Chunki o'quv materialli xajmi oshgan, sharoit ko'paytirilgan, chet tilida muloqat tabiiy

holatga yaqinlashtiriladi. O'quv jarayonida to'laqonli nutq amalga oshiriladi, axborot almashishga imkoniyat yaratiladi.

2. Ixtiyoriy darslarda o'quvchilar til ustida mustaqil ishlash malakasi bilan taminlanadi. Tilni mustaqil o'rganish yangi U N Vda fikr almashish va matnni o'qib tushunish, tegishli axborotnomalar qoshimcha adbiyot bilan ishlashda nomoyon bo'ladi. Notanish so'z va gramatik xodisasi ularning formal belgilriga va so'z yasovchi unsurlariga qarab xamda kadeksdan mustaqil o'rganadilar.

3. Majbuiy va ixtiyoriy darslar bevosita bog'lab olib boriladi. Oddiy va ixtiyoriy darsda mavzu tarzda egallanmish ko'nikmava malakalarga tayanib ish ko'riladi. Ushbu qoida barcha nutq faoliyati turlarini va til materialinio'rganishda amal qilinadi.

4. Ixtiyoriy mashg'ulot asosiy darsdan bir muncha farq qiladi. Mashgulot joyi va shakil erkin tanlanadi.

Ixtiyoriy mashg'ulotda ishtirok etuvchilarnishartli ravishda 3 toifaga bo'lish mumkun.

1.chet tilini yaxshilab o'rganish ya'ni gaplahish yoki o'qish qiziqarli hamda foydali deb xisoblovchilar.

2.Kelgusida ushbu tilni mutaxassislik sifatida tanlamoqchi, chet til bo'yicha o'qishga kirmoqchi bo'lganlar.

3. Tanlagan biror soxada yetarli axborot olish, muayyan fan soxasida chet til manbalaridan foydalanishni ko'zlagan o'quvchilar. Ixtiyoriy kurs 2 xil.

1.o'qishni chuqurroq o'rganish

2. og'zaki nutq va o'qishni o'rgatish

2. o'quvchilar xoxish istaklarini inobatga olib, chet til bo'yicha, yuqorida takidlagandek, ikki turdagi fakultativ kurs joriy etilgan. O'qishni chuqurroq o'rgatish va og'zaki nutq va o'qishni chuqurroq o'rgatish mashg'ulotlari o'tkaziladi. Mazkur kurslarni o'tkazish borasia yetarli ilmiy ma'lumot va amaliy tajriba to'plangan.

Chet til muallimlar muayyan kursni boshlashdan oldin uning metodik mazmunini puxta bilib olishlari kerak.

O'quvchilar chet tilde ixtiyor darsga munosbatini, avval takidlanganidek , asosan ikki toifaga bo'lish mumkin ..

Bir gurux o'quvchilar chet tili yaxshi ko'rib, uni bo'shqa o'quv predmedlaridan teranroq organishga moil bo'ladilar ular uchun tel tilada gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv bir xilda qiziqarli. Boshqa toifadagi o'quvchilar esa fanning biror jabhasiga joziba uyg'otadi, uni ixtiyoriy tarzda chuqir o'zlashtirishga jazm qiladi.

Tartib qoidaga binoan o'quvchi bir yo'la 2 ta fakultativga qatnashish mumkin. Ular „O'qishni chuqurroq o'rganish” kursiga olinadi. Asosiy ixtiyoriy dars bilan bog'liq axborotni chet til materialida oladi.

„O’qishni chuqurroq o’rgatish “ fakultativ kursi. Ushbu kursning maqsadi aniq: soxaviy adabiyotni o’qib, o’sha fan yoki amaliyot bo’yicha bilimli chuqurlashtirish. O’quvchilarning bilish faoliyatlari matnlarini mustaqil o’qish orqali rivojlantiradi.

O’qishning birinchi yilida o’quvchilarning leksik grammatik birliklarni o’zlashtirish: mazmunan va shaklan birmuncha murakkab matnlarni o’qib axborot olish; V-VIII sinf mavzulari doirasida gapirish va yozuv malakalarini o’stirish kabilar.

Ko’nikma va malakalarni hosil qilishga muayyam mashqlar majmuasini bajarish orqali erishiladi. Sinfda muallim rahbarligida quyidagi mashqlarni bajarish tavsiya qilinadi.

1. Matnda uchraydigan grammatik hodisani

o’rgatishga mo’ljallangan mashqlar.

1. Gapni muallimdan eshtib takrorlash:
2. Gapning biror qismini mustaqil o’zgartirish:
3. Biror unsur tushurib berilgan gapni to’ldirish:
4. Gapni imkoni boricha qisqartirish:
5. Gapni kengaytirish:
6. Gap turini o’zgartirish:
7. Ma’lum gapga o’xshagan qator gaplar tuzish:
8. U.N.V. ni mazkur gap ishtirokida yoritish:

2. Matn bilan ishlash mashqlari:

1. Matnning qisqacha rejasini tuzish.
2. Matn mazmunini gapirib berish.
3. Matnning mazmunini yozma muxtasar bayon etish.

3. O'qiganda leksika ma'nosini mustaqil faxmlab olish mashqlari:

1. Kontekst yordamida ma'noni ochish :
2. So'z yasash unsurlarini bilish orqali ma'noni ochish:
3. Bir o'zakli so'zlarni tanib olish.
4. Soxaga oid matndagi qiyin grammatik

3. Konstruksiyani tanib olish mashqlari:

1. Shakliy belgilarga ko'ra matndagi konstruksiyaga tushirish.

5. O'qib tushunganlikni tekshirish mashqlari:

1. Matnni o'qib berilgan savollarga javob topish:
2. Aytilgan fikrlarga mos keladigan gaplarni matndan topish:
3. Asosiy mazmunni aks ettiruvchi gaplarni matndan bergilash:
4. Matnni mazmunan qismlarga ajratish:
5. Asosiy mazmunni saqlagan holda matnni qisqartirish:
6. Ayrim gaplarni ona tiliga o'girish:
7. Matnni yoki parchani ma'noli qilib ifodali o'qish.

Ushbu fakultativ kursini o'rgatishda chet tili muallimi birinchi soha hamkaslari bilan birga ish olib boradi.

O'quv rejasidagi fakultativ soatlarning hammasi ushbu kursga ajratiladi. O'quvchi birgina shu kursga qatnaydi. Mazkur kurs chet tilni kelajakda mutaxassislik maqomida tanlangan, uni yaxshi bilishni taqozo etadigan amaliy faoliyatga hayotini bag'ishlamoqchi bo'lgan o'quvchilarni biriktiradi.

Mazkur ixtiyoriy kursning vazifasi doirasiga quyidagilar kiradi: o'quvchilarga mamlakatimiz va til o'rganilayotgan mamlakatning madaniy, sport va ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid mavzularda suxbat qurish va unchalik katta bo'lmagan og'zaki axborot va ma'ruzalar qilishni o'rgatish hamda 15 daqiqadan oshmaydigan ma'ruza va axborotlarni tinglab tushunishni o'rgatish: yozma nutqni o'rgatish bo'yicha o'quvchilarga o'z fikrlarini bayon qilish, xat va devoriy matbuotga maqola yozish va o'qigan eshitganlariga doir referat tuzish vazifasi yuklatiladi. og'zaki nutq va o'qishni chuqurroq o'rgana olgan o'quvchi oiliy o'quv yurtida shu sohada o'qib ketish va xizmat jabhalarida nutq malakalarini qo'llay olish imkoniyatgacha ega bo'ladi.

Og'zaki nutqni o'rganishda tayyorlanib va tayyorlanmay gapirishga farqli yondashiladi. Sheriklari fikr bayon etganda, audioteksni tinglaganda, dia-va filmini tomosha qilganda o'quvchi o'z fikrini bildirishga o'rganadi.

Tayyorlanib gapirishda ona tili va chet tiliga suyanib, turli ma'ruzalar qilish va siyosiy axborot berish mashq qilinadi. Fakultativ sharoitda gapirishning quyidagi usullari bor.

- 1 Tinglangan va o'qilgan mavzuni mazmunini aytib berish. VIII sinfda tanish material asosidagi matnning hajmi 1,5 betgacha bo'ladi, undan ko'p sahifali matn berilganda, reja asosida gapiriladi. IX sinfda 2 betli, X-XI sinflarda 5 betli matnlar beriladi.
- 2 O'qilgan va ko'rilgan narsa yoki xodisaning qisqacha mazmunini bayon etish. O'qilgan kitob, ko'rilgan film yoki teatr tomoshasi haqida avvaldan tayyorlangan rejaga binoan gapirib berish.

3 Ko'rgan vao'qiganni tanqidiy tahlil qilish.VIII sinfda tayyorlanib fikr yuritiladi. IX-XI sinflarda kirganlarini darhol muxokama qilishga kirishadilar.

4 Shaxsiy hayotidan axborot berish.Maktab oila,qishloq,shaxar haqida so'z yuritiladi.Gapirish chog'ida sheriklari uchun qiziqarli informativ ma'lumot bayon etilishi ahamiyatidir.

5 Matbuot materiali bo'yicha siyosiy voqealarni so'zlash.VIII-IX sinflarda siyosiy axborot beriladi.X-XI sinflarda esa unga gazetalardan to'plangan madaniy,sport va ilmiy texnikaviy ma'lumotlar ham qo'shib aytiladi.

6 Ma'ruzalar qilish.O'quvchilar konferentsiyalari va tantanali kechalarga o'quvchi ma'ruza tayyorlaydi.

7 Sport haqida axborot berish.Til o'rganilayotgan mamlakat va vatanimiz yoshlarining sportga oid hayoti va jahon sportining yutuqlari to'g'risida o'quvchilar yakka nutq bajaradilar.

Juft nutqda gapirish:

1 Hayotiy muloqat maqomidagi suxbat.VIII sinfda o'quvchilar muallim va o'rtoqlari bilan tayyorlanmagan suxbat quradilar.Keyingi sinflarda asosan sheriklari bilan juft nutqda ishtirok etadilar.Xayratlanish,ajablanish,afsuslanish kabilarni ifodalovchi replikalardan foydalanib,suxbat qiladilar.X-XI sinflarda ko'proq davra suxbati quriladi.

2 Munozaralar o'tkazish,juft bo'lib va guruxlarga bo'linib,maktabga oid siyosiy ,sport ilmiy masalalarga bag'ishlangan mavzularda fikr almashish yo'lga qo'yiladi.

Matbuot konferensiyasi o'tkaziladi.BDK yeg'ilishlari olib boriladi.

3 O'qilgan matnning mazmunini rollarga kirib aytish.Matndagi voqeani va qaxramonlar fikrini bayon etishdan tashqari o'z fikr mulohazalarini ham suxbat mazmuniga qo'shib yuborishadi.

Chet tilidan fakultativ mashg'ulotlar ta'lim tarbiya berishda muhim o'rin tutadi. Fakultativ mashg'ulot o'quvchilar qiziqishi, qobiliyatiga mos ravishda tashkil qilinadi. Bu mashg'ulotda 8-9 sinf o'quvchilari, akademik litsey o'quvchilari qatnashadilar. O'quvchi talabalarga qo'shimcha materiallar orqali che til chuqur o'rgatiladi. Bu mashg'ulot darsdan oldin yoki darsdan keyin o'kaziladi. Mashg'ulotlarda darsga o'xshab o'tkazilmaydi, lekin o'quvchining qatnashganligi hisobga olinib, o'rta maktab guvohnomasida qayd etiladi, o'qituvchiga xaq to'lanadi. Fakultativ mashg'ulotlarni o'rganmoqchi o'quvchi talabalar terib olinadi, bir guruxda 15 tadan oshmagani maqul. Fakultativ mashg'ulotlarning 2 ta turi bor.

1 Og'zaki nutqni chuqur o'rgatish, o'rganish turi.

2 Og'zaki nutq va o'qishni chuqur o'rgatish, o'rganish turi.

Maktabda, akademik litsey, kollejda chet tilidan olib boriladigan fakultativ mashg'ulot ta'lim tarbiya jarayonining majburiy bo'lmagan qismidir. Chet tilidan fakultativ mashg'ulotlar o'rta maktablarning o'quv rejasi asosida kiritilgan.

Fakultativ mashg'ulot bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgan, maqollar, qo'llanmalar yozilgan. Ularda fakultativ mashg'ulot maqsadi, mazmuni, talabi, mavzular, uni tashkil qilish, o'tkazish shakllari yaratilgan.

Fakultativ mashg'ulot maqsadi o'quvchi, talabalarga chet tilida og'zaki nutqni, o'qishni chuqur egallatish, mustaqil ishlash malaka ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Mashg'ulot umumta'limiy, amaliy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni ham amalga oshirishni ko'zda tutadi. Fakultativ mashg'ulotlarda S.F Shatilovning fikricha:

1 Kommunikativlik:

2 Mustaqil ishlash, ishlatish:

3 Uni majburiy kurs bilan bog'lab olib boorish:

4 Fakultativ mashg'ulotni o'tkazish shakli,mazmuni, majburiy kurs o'tkazish shakli mazmuniga o'xshamaslik shakli asosida olib borish lozim.

U fakultativ mashg'ulotning vazifasiga quyidagilarni kiritadi:

1 Gapirishni o'rgatish orqali o'quvchilarga chet tilida aloqa qilishni o'stirish va mukammallashtirishdir:

2 Tinglab tushunishni o'rgatish orqali nutqni tinglab tushunishni o'stirish:

3 O'qishni o'rgatish orqali esa:

a)matnning asosiy mazmunini tushunish.

b)matnni to'liq mazmunini tushunishdir.

Tinglab tushunish va o'qish uchun olinadigan materiallar tili o'rganiladigan mamlakatning tarixi ,madaniyati,urf-odatlari,hozirgi turmushi,hayoti to'g'risida bo'ladi.Ularning mazmuni gapirishni mukammallashtirishga yordam berishni ko'zda tutadi.

5 Fakultativ mashg'ulotga quyidagi talablar qo'yiladi:

1 Monologik nutq bo'yicha:

a)ilgari ko'rgan pesa,kinofilmlarni tayyorlanmay asosiy mazmunini aytib berish:

b) ilgari tayyorgarliksiz tinglangan,o'qilgan matnlarni to'liq mazmunini aytib berish:

c) yeg'ilish, kengashlarda ma'ruza qilish:

g)ro'znoma, ma'ruzalar haqida axborot berish:

2 Dialogik nutq bo'yicha esa:

a) oldindan tayyorlanmasdan ma'lumot almashish:

b)oldindan tayyorlanmay o'rganilgan mavzular bo'yicha bahsda qatnashish:

v)berilgan nutq vaziyati asosida diolog olib borish ta'lab qilinadi:

3 Tinglab tushunish bo'yicha ta'lab esa tinglab habarlar mazmuni tushunishdir.

a)lug'atsiz o'qish,tushunish demakdir.

b)tahlilni va lug'atni qo'llab,ro'znoma maqolasini o'qish.

v)o'quvchi,talabalarni qiziqtirgan ilmiy ommabop mavzudagi adabiyotlarni lug'at bilan o'qish talabi qo'yiladi.

5 Yozuv bo'yicha esa:

a)2 betli tinglangan matnni yozma ifodalash.

b) bayon yozish.

v) xat va devoriy gazetaqa maqola yozish talablari qo'yiladi.

Fakultativ mashg'ulot 8-9 sinflarda 2 yil davom etgani maqul.Birinchi yil 8-sinfda 70 soat haftasiga,2 soat.9-sinfda 105 soat haftasiga 3 soat dars mashg'uloti jadvalga qo'yiladi.Asosiy mashg'ulotda esa yangi so'zlar,yangi matnlar,mavzular o'qitiladi,nutq mashlari keng bajariladi hamda bunga o'qish ham kiritiladi.

Ikki yillik mashg'ulotda o'qishni 2 ta turi:

1 Sinfda taxlil qilish va fahmlab tushunish orqali o'qish.

2 Uyda o'qish orqali uning mazmunini sinfda muhokama o'tkazish.

Og'zaki nutq bo'yicha esa tayyorlanmagan dialogik,monologik nutqqa,chet tilini tinglab tushunishga o'rgatiladi.O'zbek tilida o'qitiladigan maktablar uchun fakultativ mashg'ulotlar bo'yicha ishlar qilingan.O'zbek maktablari uchun 1976-yilda fakultativ mashg'ulot dasturi ishlab chiqilgan,lekin qaytadan ishlanmagan.Dasturni zamon talablari asosida qayta tuzish zarur.Hozirgi davr o'zbek maktablari uchun yangi qo'llanma yoritish tuzish ta'lab qilinadi.Hozirgi paytda o'zbek

maktablarining 8-9 sinflarda bunday mashg'ulot o'tkazilmoqda. Akademik litseylarda ham fakultativ mashg'ulotlar tashkil qilishni davr taqozo qilmoqda. Uni tashkil qilish maqsadi oliy o'quv yurtlariga kirishga tayyorlashdir. Bu maqsad bo'yicha akademik litsey va kollejlarda hali hech qanday ish qilinmagan.

Chet tilida o'tkaziladigan sinfdan, maktabdan, audiotoriyadan tashqari ishlar ta'lim- tarbiya berish tizimining tarkibiy qismidir. Ularga o'quvchi, talabalar o'z hohishlari bilan qatnashadilar. Hozirgi davr talablari bunday ishlarga yanada ko'proq ahamiyat berishni ta'lab qiladi. Ular ko'proq tarbiyaviy yo'nalishda bo'ladi, o'quvchilarning chet tilidan bilim, malaka va ko'nikmalarini chuqurlashtiradi, oshiradi, rivojlantiradi. O'quvchilarni vatanparvarlik, baynalminal ruhida tarbiyalashga, kattalarni, mehnatni hurmat qilishga o'rgatadi. Darsda qilinadigan ishlar sinfdan, maktabdan tashqari ishlar bir-birini to'ldiradi, bir-biriga bog'liq, bir-biri bilan aloqadordir. Sinfdan, maktabdan tashqari ishlar chet tilida turli hil nutq faoliyati turlarini o'stirish bilan birga tarbiyaviy, ta'limiy yo'nalishda darsdan tashqari tashkil qilinadi. Bunday ishlar uchun o'qituvchiga haq to'lanmaydi.

A.A. Mirolyubovning fikricha, bunday ishlarda har bir chet tilining hususiyati, o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari hisobga olinib, u ikkita vazifani bajaradi.

Birinchidan, o'quvchilarning chet tiliga qiziqishini oshiradi, bilimni chuqurlashtiradi, chet tilidan malaka va ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Ikkinchidan, o'quvchilarning g'oyaviy, siyosiy, mehnat, estetik tarbiyasini rivojlantirish uchun bo'sh vaqtni band qiladi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni o'tkazishdan asosiy maqsad til sohasida yangi bilim berish emas, balki faqat o'quvchilar bilimi va malaka ko'nikmalarini chuqurlashtirish, kengaytirishdir. Bunday ishlarda qo'llanadigan mashqlar ishlar qiziqarli bo'lishi zarur. O'quvchilar o'rganayotgan materiallar boshqa predmet materiallari bilan bog'langan bo'lishi maqul. Ular o'quvchilarning bilimiga va faolligiga tayanishi, ommaviy hususiyatiga ega bo'lishi hamda maktab o'quvchilarining ijodiy tashabbusini, ularning mustaqilligini o'stirish zarur.

Hozir sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni yakka, guruhga bo'lib ishlash va ommaviy ishlash shakllariga bo'linyapti.

Yakka ishlash, ishlatish shaklida o'quvchiga she'rni o'rgatish, monologni yodlatish, ashulani o'rgatish, o'quvchiga maqola yozishni o'rgatish, ko'rgazmali qurollar kabi turlari kiradi.

O'quvchilar o'z hohishlari bilan qatnashganliklari tufayli bunday ishlar mazmun va shakl jihatdan ularni qiziqtiradigan, yangi malumot beradigan bo'lishi zarur. Aks holda o'quvchilar qiziqmay qoladilar, keyinchalik qatnashmaydilar. O'zbek maktablarining birinchi bosqichida (5-6 sinf o'quvchilari bilan) quvnoqlar va zukkolar musobaqasi, ertaklarni, dramalarni shakllantirish, jo'r bo'lib ashula aytish, ifodali o'qish, albom jihozlash, nemischa alifbo bayrami o'tkazish kabi sinfdan tashqari ishlarni nemis tilida tashkil qilish, o'tkazish maqsadga mofiqdir.

Hozirgi paytda maktabda baynalminal kulub shaklini keng faollashtirish zarur. Baynalminal kulubda nemis tilida gaplashadigon o'quvchilar bilan hat yozishni, marka, belgilar, nishonlar almashishni tashkil qilish ko'zda tutiladi.

Ayniqsa, til o'rganiladigan mamlakatlar- Buyuk Britaniya, AQSH, Hindiston maktablari o'quvchilari bilan hat yozishsalar, o'quvchilar uchun yaxshi bo'ladi. O'quvchilarimiz boshqa respublika o'quvchilari bilan ham tanishib, ular bilan nemischa hat yozishni tashkil qilish mumkin. Sinfdan, maktabdan tashqari ishlar har haftada har oyda o'tkaziladigan ishlarga bir yilga, yarim yilga rejalashtiriladi, taqsimlanadi. O'qituvchi reja daftarning boshlanishga bunday ishlarga qatnashuvchi o'quvchilar ro'yhati, sinfini yozish lozim, ular 15-20 tadan oshmasligi lozim. Shu reja asosida o'qituvchi tayyorgarlik ko'radi, uning asosida o'tkazish jarayonining senariysini yozadi va o'quvchilarni tayyorlaydi. Bir yilda bir marta o'tkaziladigan kechalar, yig'inlar oldindan rejalashtiriladi. O'qituvchi mavzuni, mazmunni, materialni olib boruvchilarni tanlaydi, tayyorlaydi, taqsimlaydi, o'tkazish muddati, tartibi qatnashuvchilar aniqlanadi. Tayyorlanib bo'lgandan so'ng uni o'tkazish muddati belgilanadi, shu asosida o'tkaziladi. Kechalar bir o'quv yilida to'rt marta o'tkazilsa maqsadga mofiqdir. Agar ular turli mavzuda ma'ruza qilish, she'rlar aytish,

sahnalashtirish, ashula, latifa aytish, o'yin o'ynashlardan, musobaqa quvnoqlar va zukkolar musobaqalaridan iborat bo'lsa qiziqarli bo'lardi.

MUSOBAQALAR

- 1) Ifodali o'qish, she'r aytish.
- 2) Mavzu bo'yicha tayyorgarliksiz so'zlash.
- 3) Rasmni tayyorgarliksiz og'zaki tasvirlash.
- 4) Sinxron tarjima qilish.
- 5) Yozma tarjima qilish.
- 6) Tili o'rganilayotgan mamlakat bo'yicha savol javoblar o'tkazilishi mumkin. Hozir bunday musobaqalar ko'p o'tkaziliyapti. Musobaqalar maktablar aro, tuman viloyat, shahar, respublika bo'yicha o'tkaziladi. Maktablarda tashkil qilinadigan kechalarga, yeg'lishlarga nemis tilida gaplashadigan mamlakatlardan kelganlarni, elchihona hodimlarini taklif qilish, o'quvchilar bilan ularni uchrashtirish o'quvchilarga qiziqarli bo'ladi. O'quvchilar ular bilan nemischa gaplashishlari mumkun, unga o'quvchilar qiziqib qatnashadilar. Chet eldan kelganlar o'z mamlakatlari haqida malumotlar berib chet tiliga qiziqtiradilar. Odatda maktabda sinfdan, maktabdan tashqari ishlar bir o'qituvchiga vazifa qilib beriladi. Bu noto'g'ri.

Bizning fikrimizcha kollejlarda ham bunday ishlarni tashkil qilishni ishlab chiqish dolzarb masaladir, lekin hali ishlab chiqilgani yo'q. Albatta bunday ishlar o'quvchilar bilimiga moslashtirilishi lozim.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishim kerakki, biz rivojlanayotgan davrda yashar ekanmiz kelgusi hayotimizni bashorat qilib berolmaymiz, lekin bir narsani ta'kidlab o'tish kerakki, bugungi kunda mehnat qilib, o'zini ustida tinmay uzluksiz ishlaydigan ya'ni doimiy ravishda o'z bilim ehtiyojlarini qondirib, olgan bilimni oilasiga va davlati rivojlanishiga sarf qila oladigan shaxsgina jamiyatimizda muhim munosib o'rnini egallashi mumkin. Shuning uchun ham Milliy modelimizda uzluksiz ta'limga katta ahamiyat berilmoqda. Respublikamiz Prezidenti I.A Karimov ta'kidlaganidek "Ta'lim-tarbiya ong mahsulidir, lekin ayni paytda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad –ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi".

Mamlakatimiz xalqaro aloqalari turli jabhalarda rivojlanib kelmoqda. Shu boisdan mamlakatda chet tilini biladigan mutahassislar ehtiyoji kundan-kunga o'sib bormoqda va respublika hukumati bu sohada ko'plab ijobiy ishlarni amalga oshirmoqda uzluksiz ta'lim tizimini joriy qilinishi barcha oila ta'lim muassasalarida tilni o'rgatishga katta ahamiyat beriladi.

Dars soatlariga qo'shimcha fakultativ soatlarini qo'shilishi, o'quvchilarni bilim saviyasini yaxshilash, dunyoqarashini o'stirish uchun turli sinfdan tashqari tashkil qilinishi, viktorina o'yinlari, olimpiada sinovlari, til sohasiga bag'ishlangan til kechalari o'tkazilishi undagi turli hil chiqishlar, o'quvchilarning ko'rgazmali qurollari, to'garakda olib boriladigan faoliyatlarini yanada qiziqarli tus olishi va mustahkamlanishi o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlanishiga asoslangan chet el elchixonasi xodimlari bilan uchrashuvlar, ommaviy axborot vositalarini rivojlanishi natijasida chet tilida turli xil dasturlarni berilishi bularning barchasi ta'lim sistemasiga qaratilgan e'tibor natijalaridir.

Ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi. Shuningdek bosma materiallar va teleko'rsatuvlar chet tilida ham

tarqatilmoqda. Bu esa chet tillarini mustahkam puxta egallashni taqozo etadi. Ta'lim sohasida chet tilini o'rganishda ko'plab imkoniyatlar yaratilgan. Chet tilini o'rgatishda sinfdan tashqari ishlarning o'rnining ahamiyati kattadir, chunki chet tillarida sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar boshqa o'quv predmetlari singari, umumiy ta'lim tarbiya prosesini ajralmas qismidir.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning tildan olgan bilimlarining sifatini yaxshilashga yordam beradi, ularning amaliy malaka ko'nikmalarini chuqurlashtiradi ularni ijodiy aktivliklarini, tashabbusini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Saidumar Saydaliyev „Chet tili o'qitish metodikasidan ocherdlar”
- 2) J.Jalolov „Chet tili o'qitish metodikasi” Toshkent, o'qituvchi nashriyoti 1996-y
- 3) R. Zaripova „Chet tili o'qitish metodikasidan qo'llanma” Toshkent o'qituvchi nashriyoti 1986-y
- 4) R. Rahmonov „O'rta maktablarda chet tili o'qitishning umumiy metodikasi” Toshkent o'qituvchi nashriyoti 1974
- 5) O'. Hoshimov „Ingliz tili metodikasi”
- 6) R.N. Tokarova „Ingliz tilidan fakultativ mashg'ulotlar uchun xrestomatiya” Toshkent 1976-y
- 7) I.A.Karimov „Ta'lim xaqida qonunu”
- 8) I.A.Karimov „Barkamol avlod orzusi” Toshkent 1998-y
- 9) I.A.Karimov „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”